

ISSN: 2545-0573

## G'O'ZA VA SOYA XAMKORLIKDA EKILGANDA ULAR ORASIGA ISHLOV BERISH SIFATINI OSHIRISH

**Ravshanbek Amanullaevich Abdiraxmonov**

*Texnika fanlari nomzodi, dotsent, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, O'zbekiston, Andijon*

**Tursunov Mardonbek Adurazzoq o'g'li**

*Magistr, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, O'zbekiston, Andijon*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so'zlar:**

g'o'za, soya, xamkor ekin, qator orasiga ishlov berish, mexanizatsiyalashtirish, hosildorlik, mehnat va energiya sarfi.

### Annotatsiya

Paxtachilik sohasida chigitni soya urug'i bilan birgalikda yonma-yon ekish yana bir yangilik bo'lib, uning texnologiyasini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda. Maqolada g'o'za va soya xamkorlikda ekilganda ular orasiga ishlov berishdagi muammolar bo'yicha fikrlar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Dunyoda soya doni yetishtirish bo'yicha yetakchi bo'lgan Braziliya, AQSH, Argentina, Xitoy, Yaponiya, Koreya kabi mamlakatlar oqsil taqchilligi muammosini hal etilishiga erishmoqda.

O'zbekistonning tabiiy-iqlim sharoitlari va havo haroratining 230-240 kunligi bois o'suv davrining yetarliligi soya ekinlarini ekib o'stirishga mosligi bilan xarakterlanadi.

Muxtaram Prezidentimizning Farmon va qarorlari asosida qishloq xo'jaligining boshqarish uslublaridagi klasterlarni tashkil etilishi, har xil o'simliklar hosildorligining orttirishdagi yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish, fermerlar va aholini daromadini orttirish maqsadida parrandachilik, quyonchilik, baliqchilik, asalarichilik kabi sohalar jadallik bilan rivojlanmoqda.

Paxtachilik sohasida chigitni soya urug'i bilan birgalikda yonma-yon ekish yana bir yangilik bo'lib, uning texnologiyasini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanmoqda. Bu esa qishloq xo'jalik xodimlari, mutaxassislari va olimlari oldiga qo'yilgan muhim vazifa deb qabul qilindi.

Paxta chigiti va soya urug'ini bir vaqtda yonma-yon ekish va ularni yetishtirish murakkab masalalar qatoriga kirib, keng ko'lamda maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi, chunki o'simliklarning turi har xil va so'zsis, ularni yetishtirish texnologiyasi ham bir biridan farq qiladi. SHuning uchun o'tkazilayotgan tadqiqotlar asosida ularni yetishtirish texnologiyasini bir biriga yaqin

bo'lgan navlarini tanlashdan iborat bo'lishi kerak. Bunda, soya o'simligining quyidagi birlamchi xususiyatlariga e'tibor berish zarur deb xisoblaymiz:

- soya o'simligini pishib-etilish muddati;
- soya poyalarining balandligi va tuplarining egallash hajmi;
- soya va paxtani yetishtirishdagi sug'orish rejimlarini yaqinligi;
- Paxta chigiti soya urug'i bilan yonma-yon ekilganda o'simliklarning rivojlanishiga va paxta hosildorligiga salbiy ta'sir etmasligi.

Soya o'simliklarini pishib-etilishini hisobga olinishining sababi, paxta hosilini yig'ishtirish jarayonining boshlanishidan kamida 20...25 kun oldin soya hosili yig'ishtirilishi kerak bo'ladi va paxta hosilini o'z vaqtida yig'ishtirishga imkoniyat yaratiladi. Soya o'simligi poyalarining balandligi g'o'zalarnikidan past bo'lishi maqsadga muvofiqdir, chunki g'o'zaning tuplarini soya o'simligining tuplari qisib qo'ymasligi, ular orasida havoning harakatiga qarshiligi ortmasligi kerak bo'ladi, aks holda paxtaning hosildorligini kamayishiga sabab bo'lib qoladi. Buning uchun soya urug'ini paxta chigiti bilan bir vaqtda ekish sxemasini va g'o'za qator oralarining kengligini hamda urug'lar orasidagi masofani to'g'ri tanlash zarur.

Bulardan tashqari, g'o'za va soya o'simliklarining sug'orish rejimlarini to'g'ri tanlash ham paxta va soyaning hosildorligiga ta'sir etadi. SHuning uchun paxta chigiti bilan soya urug'ining bir vaqtda ekib, parvarishlash va hosilni orttirish uchun soya va g'o'za navlarining sug'orish rejimlari yaqin bo'lganlarini tanlash yoki mutaxassislar tomonidan soyaning g'o'zaga mos bo'lgan navi yaratilishi kerak bo'ladi.

Soya ekin maydonlariga navlarni tanlashda imkon qadar mahalliy seleksiyaga va sinovdan o'tgan xorijiy navlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz sharoitida asosiy va takroriy ekin sifatida hamda g'o'za bilan hamkorlikda ekish va yetishtirishga mos quyidagi serhosil mahalliy navlardan Oyjamol, Orzu, Oltintoj, xorijiy navlardan Slaviya, Amigo, Arleta, Sparta, Selekt-201 navlari tavsiya etiladi.

G'o'za qator orasiga soya ekilganda ular orasiga ishlov berish sifatini oshirish, jarayonda mehnat hamda boshqa harajatlarni sarfini kamaytirish parametrlari va ish rejimlari asoslanadi. Ushbu yo'nalishda A.To'xtaqo'ziyev, T.S.Xudoyberdiyev, A.Xudoyorov, R.I.Siddiqov, M.Mannopova, B.Mirzaaxmedovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan hamda ilmiy ishlarda g'o'za qator orasiga soya ekilganda ular orasiga ishlov berish texnologiyalari va texnika vositalari hamda ularning ishchi qismlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, g'o'za qator orasiga xamkor ekin sifatida soya ekilganda ularning orasiga ishlov berish texnologiyasi parametrlari va ish rejimlari to'liq asoslanmagan. SHu sababli g'o'za va soya xamkorlikda ekilganda ular orasiga ishlov berishda quyidagi muammolarni o'rganish talab etiladi:

- ✓ g'o'za va soya xamkorlikda ekilganda ular orasiga ishlov berishni mexanizatsiyalash vositalari konstruksiyasi va texnologik ish jarayonlarining afzalliklari asosida mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga mos kultivatorga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish;
- ✓ kultivatorning xamkor ekinlar oralig'iga ishlov beradigan takomillashtirilgan ishchi qismlarini konstruktiv sxemalarini ishlab chiqish;
- ✓ Takomillashtirilgan ishchi qismlarning talab darajasida ishlov berishini ta'minlaydigan parametrlarini asoslash.

Natijada xamkor ekinlar orasiga ishlov beruvchi kultivatorning konstruksiyasi takomillashtiriladi hamda uning maqbul qiymatlarida xamkor ekinlar orasiga ishlov berishda energiya va resurs sarflarini kamaytirishga erishiladi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. 2017 yil 14 martdagi «2017-2021 yillarda respublikada soya ekishni tashkil etish va soyalı dukkaklı ekinlar yetishtirishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2832-son qarori.
2. SHukurullaev H. Paxtachilikda texnikadan unumli foydalanish va g'o'za parvarishining qo'shimcha imkoniyatlari. -Toshkent: Nihol 2008. B 50-53.
3. Mamatov F.M. Qishloq xujalik mashinalari. –Toshkent: Fan, 2007. 339 b.
4. Вопросы агротехники и применения удобрений под хлопчатник. –Ташкент: ТашГАУ, 1991–143 с.
5. Протасов П.Б., Кодирхужаев Ф.К. Применение удобрений в хлопководстве. – Ташкент: Узбекистан, 1980. –144 б.
6. Хаджиев А. Механизация локального внесения минеральных удобрений под хлопчатник. – Ташкент: Мехнат, 1988. –185 с.
7. Мачигин Б.П. Питание хлопчатника в вегетационный период // Социалистическое сельское хозяйство Узбекистана. –Ташкент: - 1970. -№2.-С.28-35.
8. Чумаченко и др. Внесение удобрений одновременно с посевом хлопчатника. // "Хлопководство" - Москва: 1968 №2,– 39 с.
9. Рахматжанов У. Влияние локальных способов внесения фосфорных удобрений на урожайность тонковолокнистого хлопчатника: Автореф. дис... канд. с/х наук.–Душанбе, 1967.–30 с.
10. X.SHukurullaev Paxtachilikda texnikadan unumli foydalanish va g'o'za parvarishining qo'shimcha imkoniyatlari.-Toshkent Nihol-2008, 50-53 bet.
11. <https://latifundist.com/spetsproekt/240-lokalno-lentochnoe-differentsirovannoe-vnesenie-udobrenij>